



YOSHLAR TARBIYASINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Xolbayeva Nargiza Azizovna

Boyovut tumani 13 -maktab psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11199981>

ARTICLE INFO

Received: 9th April 2024

Accepted: 11th May 2024

Published: 15th May 2024

KEYWORDS

Yosh avlod, milliy mafkura, farzand, tarbiya, yuksak ma'naviyat, pedagog, qadr-qimmat, ijtimoiy muhofaza, ehtiyojmand, ma'naviy qo'llab-quvvatlash

Psixologiya fan sifatida aynan har bir shaxsda o'ziga, yurtdoshlariga, turli faoliyat turlari hamda dunyoga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllanishi yo'llarini ham o'rganishi kerak.

Respublikamizda umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatimizni asoslarini e'tiborga olib ta'lim-tarbiya mazmunini va milliy mafkurani shakllantirib borish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunga xalq og'zaki ijodi, pedogogikasi, mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlarning tarbiyaga axloq-odobga doir g'oyalarini o'rgatib komil insonni ishlari amalga oshmoqda. "Kelajak bugundan boshlanadi" deydi dono xalqimiz.

Yosh avlodni kelgusi hayoti uni inson qilib ko'rsatuvchi ruhiy va ma'naviy jarayonning mezonini belgilaydi. Bu borada ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish ta'limni ilg'or tajribalar asosida boyitib borish, yangi pedagogik tajribalar asosida olib borish ayniqsa muhimdir. Xalq musiqasi og'zaki ijodiyoti, an'analari, urf-odatlar asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish ularni ko'proq o'z millatini sevishga g'ururlanishga shorqano g'oya va ta'limotlarni o'rganib ularni kelajakka tadbiq etishga zamin yaratiladi.

Mustaqil Respublikamizda milliy madaniyatimizni o'ziga xosligini tiklash, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy, axloqiy tarbiyalash va kamol toptirish hozirgi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Demak, jamiyat ma'naviyatining o'sishi qadriyatlardan keng foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratib, qadriyatlarni yanada rivojlantirishga zamin hozirlaydi.

Psixologiyada yoshlarning ta'lim-tarbiyasi har bir ota-onaning, o'qituvchi, tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Barkamol avlodni tarbiyalash g'oyat nozik san'at bo'lib, unga juda jiddiy yondashish kerak. Yosh avlodni dunyo qarashini shakllantirishda milliy istiqloq mafkurasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ABSTRACT

Maqolada mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarning tahlili bu borada ayrim muammolar saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Xususan:

- birinchidan, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti;
- ikkinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab darajasida emas;
- uchinchidan, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri hayot yo'lini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;
- to'rtinchidan, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqei va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;
- beshinchidan, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;
- oltinchidan, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning yetarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bozorboyevna, N. N. (2023). Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini o'z ustida ishlashning zamonaviy yo'llari. *Science and innovation*, 2(Special Issue 4), 262-265.
2. Darslarda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish N Nuraliyeva *Science and innovation* 1 (B8), 1423-1426 Professional development of teachers NN Bozorboyevna Universal Publishing INC.
3. Каримова, М., Нуралиева, Н., & Халилова, Л. (2024). Медиаграмотность в сфере образования. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 26-30.
4. Allayorov, A., Xudayberdiyev, R., Nuraliyeva, N., Xalilova, L., & Abduraimova, I. (2024). GENDER TERMINOLOGIYASINING TARJIMA XUSUSIYATLARI. *Models and methods in modern science*, 3(4), 198-201.
5. Khalilova, L., Allayorov, A., Xudayberdiyev, R., & Nuraliyeva, N. (2024). INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FOREIGN LANGUAGE INSTRUCTION. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 234-237.

6. Turdikulova, B., Karimova, M., & Nuraliyeva, N. (2024). Advantages of information communication technologies. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(5), 20-25.
7. Fayziyev, A. (2024). Dars samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos metodik xususiyatlari. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-2.
8. Boshlang'ich ta'limda triz-texnikasini qo'llanishi. NN.Bozorboyevna Volume - 7_ Issue - 4_Iyun_2022. 76. 4. Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers NB Nuralieva. *International Journal of Social Science Research and Review* 5 (5), 259-264.
9. TA'LIM JARAYONIDA O 'QITUVCHILARINI KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH HOLATLARI: Guliston davlat pedagogika institute "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti Isayeva Guli Parpiyevna taqrizi ostida NN Bozorboyevna, RX Abdiquil o'g'li - IQRO INDEXING, 2024
10. Zaynidinov, H., Sayfiddin, B., Bunyod, A., & Umidjon, J. (2021, November). Parallel Processing of Signals in Local Spline Methods. In *2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)* (pp. 1-3). IEEE.
11. Ўғли Аякулов, У. А., & Нуралиева, Н. (2022). ЎҚИТУВЧИ ШАХСИНИ КАСБИЙ АҲАМИЯТГА ЭГА БЎЛГАН ФАЗИЛАТЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *Innovative Development in Educational Activities*, 1(6), 297-304.
12. Nuralieva, N. B. (2022). Developing the Professional Activity of Primary Education Teachers. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(5), 259-264.
13. Bozorboyevna, N. N. (2023). PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS.

INNOVATIVE
ACADEMY